
MEHR-MURUVVATNING OLIJANOB NAMUNASI

ehtiyojmand oilalarga yangi uylar

Yurtimizda kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarga ko'mak berish, ularni uy-joylar bilan ta'minlash yaxshi an'anaga aylandi. Ayni paytda xalqimizga xos yuksak fazilatni o'zida mujassam etgan bunday ezgu tadbirlar viloyatimizning barcha shahar, tumanlarida amalga oshirilyapti.

Bag'dod tumanidagi Mirishkor mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib o'tgan uy topshirish marosimlari ham fuqarolarimiz qalbiga bir olam hursandchilik ulashdi. Bu e'tibordan Dilbar Alijonova, Rayxona Atamatovalar bahramand bo'ldilar.

Uy topshirish marosimlari Oltiariq tumanida ham ko'tarinki ruhda boshlandi. Tuman rahbarlari va faollari ishtirokida o'tgan tadbirda so'z olganlar mamlakatimizda hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasligini, ijtimoiy himoya davlat siyosatining ustuvor tamoyillardan biri ekanligini ta'kidladilar. Rustamovlar oilasiga yangi uy-joyning kaliti topshirildi.

Mustaqillik yaratgan imkoniyatlar sharofati bilan mamlakatimizda inson manfaatlariga, xalqning tinchligi va farovonligiga xizmat qiluvchi islohotlar amalga oshirilmoqda, – deydi Sodiq Rustamov. – Turmush o'rtog'im Gulnoza Rustamova bilan yangi xonadonga ko'chib o'tdik. Buning uchun Prezidentimizdan minnatdormiz.

Uliver Fozilova – 1-guruh nogironi. Yolg'iz farzandini o'zi tarbiyalab kelmoqda. U 15 yildan buyon onasining 3 xonali uyida akasi, kelinoyisi bilan istiqomat qilardi. Shu kuni Beshariq tumanida qurib bitkazilgan ikki qavatli arzon uyning 3 xonali xonadoni kaliti unga tantanali ravishda topshirildi.

– Qizimning yangi uyga ko'chib o'tganligini ko'rib, qalbim cheksiz quvonchga to'ldi, – deydi Aysha Dugon. – Berilgan tikuv mashinasidan foydalanib, 4 yarim million so'mlik etak tikdi. Uyning dastlabki 16 million so'mi davlatimiz tomonidan to'lab berildi.

Imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramay dang'aralik G'ofurovlar oilaviy kasanachilik bilan shug'ullanishadi. Qunduzxon 2-guruh, turmush o'rtog'i Akmaljon 3-guruh nogironi. Oilaga viloyat hokimligi tomonidan berilgan tikuv mashinasida uy pardalari, ro'zg'or buyumlari tikib, aholiga etkazib beradilar. "Paxtasanoat" aksiyadorlik jamiyati bilan tuzilgan shartnomaga asosan hozirda etak tikib, buyurtmani bajarib kelmoqda.

Dang'ara tumanining Navbahor mahallasida qurilib bitkazilgan 2 qavatli, 16 xonadondan iborat arzon uylarni egalariga topshirish marosimi haqiqiy shodiyonaga aylanib ketdi. Xonadon sohiblariga kalitlar topshirildi.

Davlatimizning e'tiborga muxtoj qalblarga sevinch, umid tuyg'ularini ulashayotganligi quvonarlidir, – deydi "Navbahor" MFY raisi Oliyaxon Otaqozieva. – Yangi xonadonlar topshirilishi bilan birga viloyat xokimligi tomonidan gilamlar, uy-ro'zg'or buyumlaridan iborat jamlanma, yotoqxona mebellari ham tortiq etildi.

Prezidentimiz qaroriga ko'ra qishloq joylarda 4 va 2 sotixli 2 va 3 xonadondan iborat uylar ham Furqat tumanining Obodon mahallasida o'z egalarini topdi.

2017-09-12 11:29:00